

“TASDIQLAYMAN”



Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari
B.J.Kurbanov

2023-yil “14” iyun

**O‘zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasi bilan hamkorlikda
O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining
Andijon viloyati, Farg‘ona viloyati, Namangan viloyati va uning hududiy tuman
(shahar) bo‘limlari bosh xisobchilarining malakasini oshirish bo‘yicha
2023-yil 26-mayda tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining
2023-yil 8-9-iyundagi o‘quv-kursining bajarilganlik yuzasidan
BAYONI**

2023-yil 14-iyun

Toshkent sh.

- Raislik qiluvchi:** – **Botir Jo‘raboyevich Kurbanov** – Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi o‘rinbosari
- Ishtirok etdilar:** – **O‘zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasi Mas‘ul xodimlari – Kozimov. A. Turgunov. M**
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Buxgalteriya va marketing bo‘limi xodimlari.
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining **Andijon viloyati, Farg‘ona viloyati, Namangan viloyati va uning hududiy tuman (shahar) bo‘limlari bosh xisobchilari** ishtirok etdilar.

KUN TARTIBI

Davlat xaridlarida, davlat buyurmachisi sifatida, xaridlarni amalga oshirish yuzasidan o‘quv-kursini reja asosida tashkil etish.

(Kurbanov, Kozimov. Turgunov. Kurbanov)

Botir Jo‘raboyevich Kurbanov:

Assalomu aleykum aziz mehmonlar, qadrli hamkasblar bugungi o‘quv-kursini tashkil etishimizdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri har birimiz Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari bosh xisobchilarining Davlat xaridlarida, davlat buyurmachisi sifatida, xaridlarni amalga oshirish yuzasidan malakasini

oshirishdan mazkur tarmoqda noqonuniy xatti-harakatlar, korrupsion holatlarga batamom chek qo'yishga qaratilgan.

O'ylaymanki bugungi tashkil etilgan o'quv-kursidan barchamiz o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Marhamat! o'quv-kursimizni ochiq deb e'lon qilaman.

Kozimov. A.

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning davlat xaridlaridagi raqobat xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari o'rtasidagi, davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari o'rtasidagi va ixtisoslashgan tashkilotlar o'rtasidagi tortishuv, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishda hamda xolis va asosli mezonlar asosida eng maqbul taklif foydasiga yakuniy qaror qabul qilishda beg'arazlik va shaffoflik mexanizmlaridan foydalanish hisobidan qo'llab-quvvatlanishi, davlat xaridlarining xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqishdagi, shuningdek eng maqbul variant foydasiga yakuniy qaror qabul qilishdagi beg'arazlikni nazarda tutishi belgilangan. Shuningdek, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga teng imkoniyatlarni ta'minlashga, davlat xaridlari subyektlari o'rtasida raqobatni va ularga nisbatan beg'arazlikni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga, davlat xaridlari jarayonida shikoyatlar, nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishning hamda tegishli chora-tadbirlar ko'rishning ochiq, oshkora va tortishuv mexanizmlariga asoslanishi belgilangan.

Turgunov. M

Manfaatlar to'qnashuvi bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatdir, shuningdek affillanganlikning mavjud bo'lishi, davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emasligi belgilangan. Bundan tashqari, ushbu Qonunning 46-moddasida davlat xaridlari jarayonida cheklovlarga yo'l qo'yilmasligi, jumladan manfaatlar to'qnashuviga, davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli bo'lmagan usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari subyektlariga ta'sir o'tkazishga, davlat xaridlarida ishtirokchilarning ishtirok etishi to'g'risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning

malakasiga qo'yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo'l qo'ymaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga cheklovlar qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan.

Mazkur seminarda soha xodimlari davlat xaridlari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshiribgina qolmay o'zlarining qiziqtirgan savollariga ham javoblar olishdi.

O'quv-kursi graffik asosida davom ettirilmoqda

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'limi bosh mutaxassis**



E.U.Danayev



“TASDIQLAYMAN”
Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari
B.J.Kurbanov

2023-yil “14” iyun

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan tashkil etilgan
“O‘zbekistonda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik” davra
suhbatining
BAYONI

2023-yil 14-iyun

Toshkent sh.

- Raislik qiluvchi:** – **Botir Jo‘raboyevich Kurbanov** – Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi o‘rinbosari
- Ishtirok etdilar:** – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta‘lim markazi boshlig‘i – **Xudoyberdi Tursunbekov** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi markaziy apparati xodimlari. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining **Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar** va **Viloyat** boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari online tartibda ishtirok etdilar.

KUN TARTIBI

“O‘zbekistonda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik” hamda
“Korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy asoslari”
mavzusida o‘quv-kursini tashkil etish yuzasidan
davra suhbatini tashkil etish.

(Kurbanov, Tursunbekov, Kattabekov, Kurbanov)

Boshlovchi D.Kattabekov:

Assalomu alaykum hurmatli hamkasblar va davra suhbatimizga tashrif buyurgan mehmonlar mamnuniyat bilan mazkur seminarimizni ochiq deb e‘lon qilish uchun hurmat bilan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi o‘rinbosari B.J.Kurbanovga so‘z navbatini beramiz. Marhamat !

Botir Jo‘raboyevich Kurbanov:

Assalomu aleykum aziz mehmonlar, qadrli hamkasblar. Bugungi davra suhbatimizdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri har birimiz “O‘zbekistonda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik” borasida o‘z bilim va ko‘nikmalarimizni yanada oshirish va bu borada olib borilayotgan izchil islohotlardan boxabar bo‘lish hamda bu illatga qarshi kurashishda har birimiz peshqadam bo‘lishimiz zarurligi yuzasidan shuningdek; O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi va uning quyi tizimidagi xodimlarni “Korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy asoslari” mavzusidagi mazkur kursda qatnashish tartibi yuzasidan ma’lumot berish maqsadida mazkur davra suhbatini tashkil etildi. O‘ylaymizki bugungi davra suhbatimizdan barchamiz o‘zimizga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Marhamat! Davra suhbatimizni ochiq deb e’lon qilaman.

Xudoyberdi Tursunbekov:

Assalomu aleykum hurmatli mezbonlar, O‘zbekistonda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik” mavzusidagi davra-suhbatini tashkil etilishi hamda mazkur davra-suhbatiga bizni taklif etganlaringiz uchun bag‘oyatda mamnunmiz.

Zamon rivojlangani sayin jamiyatning turli jabhalari ham birin-ketin rivojlanib boradi, bu holatda ijobiy rivojlanishlar bilan bir qatorda salbiy oqibatlariga olib keluvchi illatlar ham kurtak yoyib borishi hech kimga sir emas. Bu illatlarning eng achinarli oqibatlariga olib keluvchisi “korrupsiya” deya atalmish tushunchadir.

Korrupsiya (lot. Corruptere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Qadimgi dunyo davlatlari qonunlarida Xamurappi, Babil, Yunonitona va qadimgi Rim jinoyatga jazo muqarrarligi ko‘rsatilgan bo‘lib ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tanqid ostiga olinganligi, bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘sigajuda qattiq putur yetkazardi.

Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi davrimizda ham korrupsiya deya atalmish illatga qarshi kurashish izchil davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib qonunlarimizda ham bu o'z aksini topib kelmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohasida korrupsion omillarga chek qo'yishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari takomillashtirildi. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Korrupsiyaviy omillarga chek qo'yishga qaratilgan 80 dan ortiq, shundan bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini tartibga soluvchi 10dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari, davlat organlari hamda tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi. "Korrupsiyadan holi qonunchilik" tamoyili asosida qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibi joriy etilib, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilishi belgilandi.

Bizning bugungi seminarga tashrif buyurishimizdan asosiy ko'zlangan maqsad bu barcha yurtdoshlarimizni xususan; Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning tarkibiga kiruvchi barcha muassasa xodimlarini qonunchilikda ko'rsatilgan tartib bilan yaqindan tanishtirish va bu illatning oldini olishdir.

Bugungi seminarimizga qo'shimcha ma'lumot sifatida shuni aytib o'tmoqchimanki Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning quyi tizimidagi xodimlarni "Korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy asoslari" mavzusidagi maxsus o'quv-kurslarida online tarzda ta'lim olishlarini tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib bu borada amaliy ishlar olib borilayotganligini ma'lum qilaman. Maxsus o'quv-kursida ishtirok etish online tartibda amalga oshirilib bunda xodimlar ish joylaridan ajralmagan holda 10 kun mobaynida (10 soat) darslarni o'zlashtirib borishlari mumkin bo'ladi, avvalo maxsus havola Akademiya tomonida Qo'mitaning maxsus o'quv-kursi bo'yicha mas'ul xodimiga yuboriladi va bu havola orqali xodimlar ro'yxatdan o'tishlari mumkin bo'ladi. Ro'yxatdan o'tish tartibi soddalashtirilayotgan bo'lib avvalari electron_pochta talab etilgan bo'lsa endilikda ro'yxatdan o'tgan shaxsiy telefon raqamingizga sms tarzida parol yuboriladi va o'quv-kursini boshlashingiz mumkin bo'ladi. O'quv-kursiga yozilgan xodimlar kurs boshlanishi va yakunida kirish va chiqish testlarini topshirishlarini eslatib o'tgan holda, tegishli mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirishlari, o'quv kursi yakunida o'rtacha 56 foizdan yuqori baho to'plagan tinglovchilar QR-kodli sertifikatni avtomatik tarzda yuklab olishlari mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, tinglovchilarning o'quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlashi uchun ularning kurslarda ishtirok etishi ustidan kundalik monitoring olib borish uchun Qo'mita tomonidan mas'ul xodimni biriktirish maqsadga muvofiq

bo'ladi deb o'ylayman. O'quv-kursida ishtirok etish bo'yicha batafsil ma'lumot Qo'mita tomonidan tayinlangan mas'ul xodim tomonidan sizlarga ma'lumot berib boriladi.

Botir Jo'raboyevich Kurbanov:

Yana bir bor assalomu alaykum davra suhbatimiz qatnashchilari bugungi seminarimiz tamomila o'zgacha ruhda o'tmoqda. Bugun barchamiz korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik borasida amalga oshirilgan ishlar va bu harakatda bizning tutgan o'rnimiz qanday bo'lishi to'g'risida keng va mazmunli ma'lumot berib o'tildi.

Bugungi "O'zbekistonda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik" mavzusidagi davra suhbatiga o'zining tashriflari bilan mamnun etgan; O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi boshlig'i – **Xudoyberdi Tursunbekovga** alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Shu jumladan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi markaziy apparati hamda **Qoraqolpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar** va **Viloyat** boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari online tartibda ishtirok etgan xodimlarga ham minnatdorchilik bildirgan holda korrupsiya deya atalmish bu illatdan yiroq turishlariga chorlab qolamiz.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'lim boshlig'i**



D.Kattabekov

“TASDIQLAYMAN”

Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi
qo‘mitasi raisi birinchi o‘rinbosari
X.N.Norboyev

2023-yil “ 11” may

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan tashkil etilgan
“Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan xodimlarning huquqiy savodxonligini
oshirish hamda bu illatga qarshi kurashish har birimizning muhim burchimiz”
davra suhbatining
BAYONI

2023-yil 11-may

Toshkent sh.

- Raislik qiluvchi:** – **Xolmamat Nuraliyevich Norboyev** – Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi birinchi o‘rinbosari
- Ishtirok etdilar:** – Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor – **Nurmat Satiniyazovich Atabekov**.
O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vaziriligi akademiyasi polkovnigi, professor –
Qobilov Sharif Rahimovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vaziriligi podpolkovnigi – **Sultonov Muzaffar Mirsaidovich**
Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik fanlar doktori professor – **Niyazova Salomat Saparovna**
Ichki ishlar vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorat bosh markazi boshlig‘i podpolkovnik–
Ramziddin Djalyaliddinovich Muxitdinov
Ichki ishlar vazirligi Tibbiyot boshqarmasi Tibbiy nazorat va tekshiruv guruhi bosh mutaxassisi, mayor –
Muzaffar Raxmatullayevich Risqiyev
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi markaziy apparati barcha xodimlari.
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining **Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va Viloyat** boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari online tartibda ishtirok etdilar.

KUN TARTIBI

“Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda bu illatga qarshi kurashish har birimizning muhim burchimiz” davra suhbatini tashkil etish.

(Norboyev, Atabekov, Qobilov, Niyazova, Norboyev)

Boshlovchi M.Saidova:

Assalomu alaykum hurmatli hamkasblar va davra suhbatimizga tashrif buyurgan mehmonlar mamnuniyat bilan mazkur seminarimizni ochiq deb e’lon qilish uchun hurmat bilan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi raisi birinchi o‘rinbosari X.N.Norboyevga so‘z navbatini beramiz. Marhamat !

Xolmamat Nuralievich Norboev:

Assalomu aleykum aziz mehmonlar, qadrli hamkasblar. Bugungi davra suhbatimizdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri har birimiz korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarimizni yanada oshirish, bu borada olib borilayotgan izchil islohotlardan boxabar bo‘lish hamda bu illatga qarshi kurashishda har birimiz peshqadam bo‘lishimiz zarurligi yuzasidan mazkur davra suhbatimiz tashkil etildi.

O‘ylaymanki bugungi davra suhbatimizdan barchamiz o‘zimizga kerakli bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lamiz. Yuqorida nomlari zikr etilgan mutaxassislarimizga tashriflari uchun minnatdorchilik bildirgan holda davra suhbatimizni ochiq deb e’lon qilaman.

Niyazova Salomat Saparovna

Assalomu alaykum hurmatli davra suhbatimizning ishtirokchilari Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohasida korrupsion omillarga chek qo‘yishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari takomillashtirildi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. O‘tgan besh yil davomida korrupsiyaviy omillarga chek qo‘yishga qaratilgan 80 dan ortiq, shundan bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini tartibga soluvchi 10dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari, davlat organlari hamda tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. “Korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida qonunchilik hujjatlari

va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibi joriy etilib, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilishi belgilandi.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida qator sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan sohalar va tarmoqlarda (kapital qurilish, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat xaridlari tizimlarida) "Korrupsiyasiz soha" va "Korrupsiyasiz hudud" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Davlat xaridlarini amalga oshirishning mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yildi.

Qobilov Sharif Rahimovich

Assalomu alaykum hurmatli davra suhbatimizning ishtirokchilari Korrupsiya bu - jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorism va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti. Men quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr bildirmoqchiman.

Korrupsiya (lot. Corruptere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi. Korrupsiyaning tarixiy o'zakkari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziydashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impechmentga tortish

mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Korrupsiya illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi. Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar - ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma'muriy qonunchilikdagi "vilka" sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya'ni, sanksiyaning aniq miqdori yo'qligi sudyada uni o'z hohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi.

Nurmat Satiniyazovich Atabekov

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi raisi o'rinbosari. Professor Bugungi kunda barchamizga ma'lumki Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat organlari va tashkilotlari jamiyat qurilishining barcha sohasida korrupsion omillarga chek qo'yishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda.

Bu borada Respublika Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida ham bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda xususan; Tashkilotning markaziy va hududiy tarmoqlarida korrupsiyaviy holatlarni minimallashtirish va pirovardida tamomila bartaraf etish maqsad qilingan holda Korrupsiyaga qarshi kurash bo'limi tashkil etildi.

Korrupsiyani oldini olish, hududlarda profilaktik tadbirlarni tashkil etish hamda korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqaruvchi omillar va sabablarni barvaqt bartaraf etish yuzasidan tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshiriladigan Yo'l xaritasi hamda Chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib ijroga qaratildi.

Sanepid qo'mitaning hududiy boshqarma va tuman (shahar) bo'limlarida ham Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini keng targ'ib etish korrupsiyaning har qanday ko'rinishini minimallashtirish kabi ijobiy yutuqlarga erishish maqsadida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining maqsad, vazifa va ish olib borish mexanizimlari yo'lga qo'yildi.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus elektron platformaga kiritilib borilmoqda hamda xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda.

Qo'mita faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ham bir qator ishlar tashkil etildi xususan;

Qo'mita faoliyatini korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashdan o'tkazishda, tashkilot zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tashkilot tizimiga kiruvchi barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalarni qamrab olishga e'tibor qaratish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada takomillashtirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, korrupsion xavfi yuqori bo'lgan sohalarda korrupsion holatlarni minimallashtirish yuzasidan Ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan ishlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Sanepid qo'mita rasmiy veb-saytida Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini keng targ'ib qilish maqsadida alohida band yaratilib murojaatchilarga qulaylik yaratildi.

Ishonch telefonlari bilan bir qatorda, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orasida faol tarmoq hisoblangan Telegram messenjiri orqali ham murojaatlarni qabul qilish "telegram bot" ishga tushirildi va kelib tushgan murojaatlar tegishli tartibda ko'rib chiqilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlarning Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning tizim tashkilotlari tomonidan o'z vaqtida va tizimli ravishda amalga oshirilishi tashkilot faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash hamda oldini olishga imkon beradi.

Xolmamat Nuralievich Norboev:

Yana bir bor assalomu alaykum davra suhbatimiz qatnashchilari bugungi seminarimiz tamomila o'zgacha ruhda o'tmoqda. Bugun barchamiz Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va bu harakatda bizning tutgan o'rnimiz qanday bo'lishi to'g'risida keng va mazmunli ma'lumot berib o'tildi.

Bugungi "Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda bu illatga qarshi kurashish har birimizning muhim burchimiz" davra suhbatiga o'zlarining tashriflari bilan mamnun etgan mehmonlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vaziriligi akademiyasi polkovnigi, professor **Qobilov Sharif Rahimovichga**, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vaziriligi podpolkovnigi **Sultonov Muzaffar Mirsaidovichga**, Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik fanlar doktori professor **Niyazova Salomat Saparovnaga**, Ichki ishlar vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorat bosh markazi boshlig'i podpolkovnik **Ramziddin Djalyaliddinovich Muxitdinovga**, Ichki ishlar vazirligi Tibbiyot boshqarmasi Tibbiy nazorat va tekshiruv guruhi bosh mutaxassisi mayor **Muzaffar Raxmatullayevich Risqiyevga** alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz. Shu jumladan Sanitariya-epidemiologik

osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi markaziy apparati hamda Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va Viloyat boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari online tartibda ishtirok etgan xodimlarga ham minnatdorchilik bildirgan holda korrupsiya deya atalmish bu illatdan yiroq turishlariga chorlab qolamiz.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo‘lim boshlig‘i**



D.Kattabekov